

Date: 17th December-2025

ONADAGI QANDLI DIABET XASTALIGI SHAROITIDA TUG'ILGAN AVLOD ME'DASI ILK POSTNATAL DAVRLARDAGI MORFOLOGIK HOLATI

Bunyod Mamatvaliyev Rahmonali o'g'li

University of Business and Science "Tibbiyot kafedrası" o'qituvchisi,

Asqaraliyeva Mohira Azamjon qizi

University of Business and Science Davolash ishi yo'nalishi 25-26 guruh talabasi,

To'lqinova Shaxzoda Rustambek qizi

University of Business and Science Davolash ishi yo'nalishi 25-27 guruh talabasi,

Nuriddinova Farida Olimjon qizi

University of Business and Science, Davolash ishi yo'nalishi 25-27 guruh talabasi

medicbmorpholog@gmail.com

asqaraliyevamadina730@gmail.com

shahzoda040229@gmail.com

nuriddinovaf236@gmail.com

Qandli diabet kasalligi har yili tobora ko'payib borayotgan jiddiy tibbiy va ijtimoiy muammodir.

Tadqiqotning maqsadi. Qandli diabet kasalligi bilan hastalangan onalardan tug'ilgan avlod me'dasining postnatal morfogenezi o'rganish.

Tadqiqotning material va usullari. Tajribaviy tadqiqotlarda 60-70 ra yetuk yoshdagi laborator oq zotsiz (og'irligi 160-180 gr bo'lgan) urg'ochi kalamushlar va ularning avlodlarida amalga oshirildi. Tajriba hayvonlari odatdagi vivarium ratsionida saqlanadi. Tajriba hayvonlarida tajribaviy qandli diabet kasalligi modeli yaratish uchun kalamushlarga 40 mg / 100 gr dozada alloksan sitrat buferini qorin bo'shlig'iga in'ektsiyasi orqali yuborildi. Nazorat guruhining kalamushlariga esa shu miqdorda va nisbatda izotonik eritma yuborildi. Kalamushlarning qoni va siydigidagi glyukoza darajasini tahlil qilish avtomatik biokimyoviy va fermentli immunoassay analizatori ChemWell 2910 Combi da o'tkazildi. Hayvonlarning avlodlari postnatal hayotining 7- 14 kunlarida o'rganildi.

Tadqiqotlar natijalari.

Onadagi qandli diabet kasalligi ulardan tug'ilgan avlod avqat hazm qilish azolariga salbiy tasir etdi. Bu o'zgarishlar birlamchi yangi tug'ilgan kalamush bolalari ilk tashqi umumiy rivojlanish belgilarida ham namoyon bo'ldi: kalamush bolalari nazorat guruhi avlodlariga nisbatan yirikroq, massasi og'irroq tug'ilganligiga qaramay, kalamush bolalarining quloq supralarining ko'chishi, eshituv yo'llarining ochilishi, terisida yung qoplaminig paydo bo'lishi, turishga urinish va uni amalga oshirishi kabi jarayonlari nisbatan 2-3-kunga kechroq namoyon bo'ldi. 3-7 kunlik kalamush bolalari meda preparatlarini gistologik tekshiruvlar ko'rsatdiki, meda shilliq qavati yuza va chuqurliklari hujayralari prizmatik shaklda, meda chukurchalari morfometrik ko'rsatkichlari nazorat guruhi hayvonlari morfometrik ko'rsatkichlariga nisbatan kam. Me'da shilliq qavatida



Date: 17th December-2025



shishish, mononuklear hujayralar bilan infiltratsiyalanish kuzatildi. Meʼdaning barcha qismlari shilliq qavatida atrofik oʻzgarishlar, limfoplazmotsitar yalligʻlanish infiltratsiyalanish va antral soha bezlarining gipertrofiyasi bilan namoyon boʻldi. Meʼda fundal sohasi epitelial qoplamida hujayralr umumiy soni kamaygan. Asosiy hujayralar aniqlanmadi. Fundal bezlar arxitektonikasi aniq koʻrinmaydi. Meʼda seroz-muscul qavatida siyraklashishish va mononuklear hujayralar bilan infiltratsiyalanish aniqlandi.

Shunday qilib, qandli diabet (QD) bilan xastalangan ona urgʻochi kalamushlardan tugʻilgan avlod medasini ilk postnatal davrlarda morfologik va morfometrik oʻrganishlar koʻrsatdiki, avlod nisbatan katta massasiga qaramay, umumiy jismoniy rivojlanishlardan orqada qoladi. Meʼda barcha qavatlarida morfofunktsional yetishmovchiliklar kuzatiladi.

Xulosalar.

1. Onadagi qandli diabet kasalligi ulardan tugʻilgan avlod ichki azolari morfofunktsional holatiga salbiy tasir qiladi.
2. QD li onalardan tugʻilgan avlod massasi kattaligiga qaramay (makrosomiya), ularning meʼdasi morfofunktsional holatida yetishmovchiliklar rivojlanadi.
3. Qandli diabet (QD) bilan xastalangan onalardan tugʻilgan avlodlar dispanser nazoratiga olinib, ularda metabolik sindromlarning profilaktikasi uchun dinamik kuzatuv va davolash- profilatika chora-tadbirlarini olib borish lozim